



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**OILADA INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY TARBIYA SINERGIYASI: YANGI
YONDASHUVLAR**

Erkaboyeva Nigora Shermatovna
Pedagogika fanlari doktori, Professor

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oilada intellektual va ma'naviy tarbiya jarayonining o'zaro uyg'unligi hamda ularning sinergitik ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Bugungi kunda globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimining tezkorligi sharoitida farzand tarbiyasida nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, milliy identitet va madaniy merosga sadoqatni rivojlantirish zarurati dolzarb bo'lib bormoqda. Shuning uchun oila muhitida intellektual rivojlanish va ma'naviy kamolotning uzviy bog'liqligi, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar, psixologik metodlar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asoslanganligi asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy xorijiy ilmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari hamda pedagogik amaliyot tahliliga tayangan holda samarali tarbiya mexanizmlari, ota-onalar kompetensiyasini oshirish yo'llari va oilaviy tarbiya tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila tarbiyasi, intellektual rivojlanish, ma'naviy tarbiya, sinergiya, tarbiya metodlari, pedagogik yondashuvlar, milliy qadriyatlar, innovatsion tarbiya, axborot texnologiyalari, shaxsiy rivojlanish, ota-onalar kompetensiyasi, ma'rifiy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, raqamli avlod, ijtimoiy-psixologik muhit.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida oilada farzand tarbiyasi masalasi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zero, intellektual salohiyati yuksak, ma'naviy barkamol va ijtimoiy mas'uliyatli avlodni tarbiyalash — har qanday millatning kelajagini ta'minlaydigan muhim omildir. Shu nuqtayi nazardan, oilada tarbiya jarayonida intellektual va ma'naviy-axloqiy omillar uyg'unligi, ya'ni tarbiyaning sinergik modeli bugungi pedagogik va psixologik tadqiqotlarda dolzarb mavzu sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalari, xususan kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika, emotsional intellektni rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish nazariyalari shuni ko'rsatadiki, bola shaxsi to'laqonli rivojlanishi uchun faqat bilim berish kifoya emas, balki uning ma'naviy dunyosini boyitish, qadriyatlar tizimini mustahkamlash, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bu esa oila muhitida tarbiyaning xalq pedagogikasi, zamonaviy psixologik fan, pedagogik texnologiyalar, innovatsion tarbiya usullari bilan uyg'un qo'llanilishini talab etadi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Intellectual va ma'naviy tarbiyaning sinergiyasi oilada sog'lom ijtimoiy muhit yaratish, bolalarda maqsadlilik, axloqiy mas'uliyat, madaniy savodxonlik, tanqidiy fikrlash va insoniy fazilatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur maqolada oilada intellektual va ma'naviy tarbiyaga yondashuvlarning nazariy asoslari, oila–maktab–jamiyat hamkorligi prinsiplari, zamonaviy va an'anaviy tarbiyaviy tajribalar integratsiyasi hamda ushbu jarayonda samaradorlikka erishish bo'yicha metodik tavsiyalar yoritiladi. Ushbu masalaning chuqur o'rganilishi nafaqat ta'lim amaliyotiga, balki yosh avlod tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oila muhitida farzandning intellektual va ma'naviy tarbiyasini ta'minlash masalasi O'zbekiston Respublikasining bir qator normativ-huquqiy hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi sifatida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, keng dunyoqarashli, intellektual salohiyatga ega shaxs sifatida shakllantirish vazifasi belgilangan. Ushbu qonunda ta'limning uzluksizligi, insonparvarlik tamoyillari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya konsepsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, "Oila kodeksi"ning 65- va 66-moddalarida ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyati huquqiy jihatdan belgilab berilib, bola ma'naviy barkamol va har tomonlama rivojlangan holda voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ota-onaning eng muhim vazifalaridan biri ekani qayd etiladi. Bu esa oilada tarbiya jarayonining nafaqat ijtimoiy, balki yuridik asosga egaligini anglatadi. Mazkur masala xalqaro hujjatlar, jumladan, O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan Bolalar huquqlari to'g'risidagi BMT Konvensiyasida ham o'z aksini topgan. Konvensiyaning 29-moddasida ta'limning maqsadi sifatida bolalarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy fazilatlarini har tomonlama rivojlantirish belgilangan bo'lib, bu oila tarbiyasida shaxs kamoloti uchun kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bundan tashqari, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda yosh avlodni ma'naviy barkamol, fikrlash qobiliyati rivojlangan holda tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hujjatlar oilada intellektual va ma'naviy tarbiya uyg'unligini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining izchilligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda oilaviy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini mustahkamlash, ota-onalarning tarbiyaviy kompetensiyasini oshirish, yoshlarning intellektual va ruhiy-ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy zamin yaratilgan. Bu esa oilada intellektual va ma'naviy tarbiya sinergiyasini amalga oshirish va unga yangicha yondashuvlarni izlash uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Oilada farzand tarbiyasini tashkil etish shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichini tashkil etadi. Zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bola shaxsining shakllanishida intellektual va ma'naviy tarbiyaning uyg'unligini ta'minlashni strategik



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



vazifa sifatida ko'rsatadi. Chunki faqat bilimga ega, ammo ma'naviy-axloqiy qadriyatlardan mahrum yosh avlod jamiyat ehtiyojlariga to'liq javob bera olmaydi; xuddi shuningdek, yuksak ma'naviyat, ammo intellektual salohiyatsiz shaxsning ham raqobatbardoshligi ta'minlanmaydi. Shu bois pedagogika fanida "sinergiya" tushunchasi — iki tomonlama o'zaro ta'sir orqali yuqori natijaga erishish mexanizmi, tarbiyaning uzviy birlikda olib borilish zarurligini anglatadi.

Intellektual tarbiya bola tafakkuri, bilish jarayonlari, kognitiv kompetensiyalari, kreativ fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u zamonaviy kognitiv psixologiya, konstruktivizm nazariyasi va kompetensiyaviy yondashuvlar orqali talqin qilinadi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, Vygotskiyning sotsiokultural ta'lim kontsepsiyasi, Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi oilaviy muhitning bilish jarayonlaridagi rolini asoslab beradi. Bu qarashlar oilada muloqot madaniyatini rivojlantirish, intellektual muhit yaratish, farzandni erkin fikrlashga undashning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Ma'naviy tarbiya esa shaxsning axloqiy me'yorlarga sodiqligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmati, ichki madaniyat, vatanparvarlik, empatiya, ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasiga ko'ra, ma'naviy o'sish insonning eng yuqori ehtiyojlaridan biridir. Shuningdek, I. Kantning axloqiy qonunlar tizimi, A. Adlarning ijtimoiy hamkorlik nazariyasi shaxsning ma'naviy yetukligi jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlar asosida shakllanishini ko'rsatadi. Oila esa ushbu jarayonning asosiy ijtimoiy instituti sifatida bolada to'g'ri qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim nazariyalari, xususan, holistik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ma'naviy-intellektual integratsiya modeli tarbiya jarayonida aqliy va ma'naviy rivojlanishning uzviyligini asoslaydi. Bu yondashuvlar farzandni nafaqat bilimli, balki tarbiyali, mas'uliyatli, empatik, jamiyatga foydali shaxs sifatida voyaga yetkazishni ko'zlaydi.

Milliy pedagogik meros, xususan, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar merosida ham "aql va axloq birligi" tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida talqin etilgan. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikri oilada ma'naviy va intellektual tarbiya uyg'unligini samarali tashkil etishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oilada intellektual va ma'naviy tarbiya sinergiyasi — farzandning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks yondashuvdir. Uning nazariy asoslari milliy pedagogik meros, zamonaviy psixologiya, shaxs rivojlanishi nazariyalari hamda xalqaro ta'lim tamoyillariga tayanadi. Mazkur konsepsiyani amalda qo'llash oila, maktab va jamiyatning uzviy hamkorligini talab etadi



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



hamda raqobatbardosh, ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Oilada intellektual va ma'naviy tarbiya sinergiyasini amaliyotga tatbiq etish jarayonida pedagogik yondashuvlar va psixologik mexanizmlarning uyg'un qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandning har tomonlama kamol topishida ota-onalarning shaxsiy namunasi, oilaviy muhit, muloqot madaniyati va ma'naviy qadriyatlar tizimi hal qiluvchi omillardan biridir. Shu ma'noda, zamonaviy oilaviy tarbiyaga doir metodik tavsiyalar pedagogik nazariya va milliy qadriyatlar uyg'unligiga tayangan holda taklif etiladi.

Avvalo, oilada intellektual muhitni shakllantirish zarur. Bolaning yoshiga mos kitoblar, ilmiy-populyar adabiyotlar, intellektual o'yinlar, ilmiy-ma'rifiy kontent va kreativ fikrlash mashqlari bolaning bilish faoliyatini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, ota-onaning o'zi ham doimiy o'rganish, kitob mutolaasi va fikrlash faoliyatida faol bo'lishi lozim. Chunki tarbiyada eng kuchli vosita — bu shaxsiy namuna hisoblanadi. Ma'naviy tarbiya jarayonida milliy urf-odatlar, adabiy meros, buyuk mutafakkirlar fikrlari, milliy qadriyatlar va umumqadriyatli axloqiy me'yorlar asosiy o'rinni egallaydi. Oila ichida mehr-oqibat, hurmat, odob, mas'uliyat, halollik, rahm-shafqat kabi fazilatlarni amaliy ko'rsatish farzand dunyoqarashini shakllantiradi. Shuningdek, oilada emotsional intellektni rivojlantirish — bolaning his-tuyg'ularini tushunish, eshitish, qo'llab-quvvatlash, muammolarni muloqot orqali hal qilish madaniyatini tarbiyalash zamonaviy psixologiya talablariga mosdir.

Maktab va oila hamkorligi ham tarbiyaning muhim bo'g'ini sifatida qaraladi. Ota-onalar uchun psixologik-pedagogik seminarlar, treninglar, maslahat markazlarini faol tashkil etish farzand tarbiyasida ilmiy yondashuvlarni qo'llash imkonini yaratadi. Bugungi raqamli davrda bolalarning internetdan to'g'ri va maqsadli foydalanishini tashkil etish, zararli axborot oqimidan himoya qilish ham ota-onalarning muhim vazifalaridandir. Natijada, oilada intellektual va ma'naviy tarbiya sinergiyasi farzandni barkamol inson sifatida voyaga yetkazadi: bilimli, fikrli, ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli, milliy qadriyatlarga sodiq va global tafakkurga ega shaxs sifatida shakllantiradi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati oila, maktab va jamiyatning hamkorligiga, ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligiga hamda ma'naviy-intellektual namunasiga bevosita bog'liqdir.

Shu bois oilaviy tarbiya masalasida quyidagilar taklif etiladi: ota-onalarning pedagogik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish, ma'naviy-ma'rifiy oilaviy tadbirlarni ko'paytirish, bolalar uchun psixologik-pedagogik maslahat xizmatlarini takomillashtirish, oilaviy kitobxonlik an'analarni mustahkamlash va raqamli madaniyatni shakllantirish.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida Qonun. – Toshkent: 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi. Oila kodeksi. – Toshkent: 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. – Toshkent, 2016.
4. BMT. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. – Nyu-York, 1989.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivoji nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984.
7. Piaget J. Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
8. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
9. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.